

AN'ANAVIY XONANDALIK IJRO USLUBLARI VA ULARNING SHAKLLANISH TARIXI

Suleymanova O'g'ilxon Abdurazzoq qizi

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati institute

2-bosqich magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 05.01.2026

Revised: 06.01.2026

Accepted: 07.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Musiq, ijro
uslublari, maqom
san'ati, ustoz-shogirda
an'analari.*

Mazkur maqolada o'zbek xalqining boy musiqa merosi tarkibidagi an'anaviy xonandalik san'ati va uning ijro uslublari tahlil qilinadi. Unda turli hududlarda shakllangan xonandalik maktablari, ularning ohang, talaffuz, nafas va uslubiy xususiyatlari, shuningdek, tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida an'anaviy ijro uslublarning milliy qadriyatlar, madaniy muhit va ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi

Musiq haqidagi ilk ma'lumotlar va uning paydo bo'lish to'g'risidagi nazaryalar turlichadir. Ma'lumki "Musiq" so'zi bizga asosan, qadimiy kitoblar, xususan arab tiliga tarjima qilingan Yunon risolalari orqali kirib kelgan. Musiq (yunoncha talaffuzi ham shunday) san'atparvar, malaksiymolar ilhom pariylari – Muzalar hunaridir. Muzalar esa mabud- Zevs qizlarining ismi. Shu sababli musiqa ular tomonidan yaratilgan muqaddas inoyatlar qatoriga mansub bo'lib, insonga ma'naviy va ruxiy ozuqa baxsh etish uchun mo'ljallangan.

Bilamizki o'zbek mumtoz musiqasi o'zining boy tarixiga ega. Undagi xonandalik va sozandalik ijro amaliyoti zabardast ustozlarning katta mehnatlari orqali yanada sayqal topgan. O'zbek mumtoz musiqasi ustoz shogird an'anasi orqali og'izdan-og'izga ko'chib, bizgacha yetib kelgan. Shuningdek An'anaviy xonandalikning voxalarga mansub ijro

uslublari va ustoz hofizlarning ijro maktablari mumtoz musiqiy meros sifatida katta o'rin egallaydi.

Ilk ijrochilik tarixi haqida so'z borganda avvalo uning paydo bo'lish ildizlari iptidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi.

Musiqiy ijodiyotning ilk ko'rinishlari ham iptidoiy jamoa davrida asosan ovchilik, temirchilik bilan kun kechirgan odamlarning mehnat va marosimlari jarayonida yuzaga kelgan.

Ommaviy o'yinlarning urg'u- zarbalari, jodu-afsunohang iboralari, hayvonlar ovozigacha taqlid sadolari, signal (darak beruvchi) qichqiriq-baqiriqlardan asta-sekin aynan musiqa xususiyatlariga ega bo'lgan ifodaviy vositalari qaror topadi. Ular asosan odam tanasi (oyoq-qo'l) harakatlarini aks ettiruvchi ritmik tuzilmalar, usullar, shuningdek odam ovozi nutq intonatsiyasi tasirchanligiga asoslangan ohang iboralari tarzida rivoj topadi. Shu bilan birga tosh, suyak, yog'och, chig'anoq, shox kabi tabiiy vositalar ilk musiqa cholg'ulari, ya'ni "musiqa qurollari" sifatida qo'llanila boshlaydi.

Bulardan hozirgacha saqlanib qolgan turlari: shiqqildoq, zuvilcha kabi idiofonlar, puflama (xushtak, burg'u, sibizg'a) urma (qayroq dovul va xokazolar) cholg'ularini ko'rsatish mumkin.

Dehqonchilik hamda chorvachilikka o'tish davridan oldin muayyan tartib hamda aniq balandlikka ega bo'lmagan tovush nisbatlari asosida tovushqator, parda tuzilmalari o'lchov va vazinning ilk shakllari yuzaga keladi. Mazkur jarayonda oddiy xususan (mavsum marosim) qo'shiqlari muayyan mavzuli cholg'u kuylari qaror topadi.

Shunday qilib asrlar osha insonlar ongi, nutqi rivojlanib, ohanglarni, yoqimli va yoqimsiz tovushlarni ajrata boshlashgan va ijrochilikning ilk na'munalari paydo bo'lgan. Endi bosh mavzuimizga qaytadigan bo'lsak, an'anaviy xonandalik ijrochiligi qadim zamonlarda shox saroylarida rivojlangan (ijro etilgan).

Maqom san'atining iptidosi masalasiga kelsak, zamon va makon nuqtainazardan uning tarixini sarhisob etadigan nuqtani topishning o'zi amrimahol. Mumtoz musiqaning o'q ildizlari juda qadimiy zamonlarga borib taqaladi.

Xorazim, Samarqand, va Buxoro shaxarlari atroflaridan topilgan arxeologik yodgorliklar orasida cholg'u-asboblar, soz chalish va uni eshitish lavhalari ko'plab uchraydi.

Masalan; Samarqandga yaqin joyda topilgan nayning tarixi besh ming yil deb belgilanadi. "Afrosiyob udi"ning yoshi ikki ming yildan ziyodir.

Qadimiy Xorazim yerlaridan topilgan Arfa(kanora), ikki torlik dutorsimon asboblarda hamda boshqa cholg'u asboblarda Ikki yarimining yil oldin yaratilganligi aniqlangan. Eng muhimi soha mutaxassislarining yakdillik bilan qayd etishicha bu asboblarning aksaryati uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan mukammal va mumtoz cholg'ulardir. Ular mohiyatan aynan klassik toifadagi musiqa an'analari bilan bog'liq ekanligi shubhasiz. Ammo ular ham bevosita maqom san'ati shakillanishining ilk nuqtasini aniq dalillar bilan ayta olmaydi.

Hofiz, sozanda va bastakorlarning ijodiy izlanishlari, ularning maxorati va ilhomi tufayli maqom badiiy g'oyadan yuksak darajali, noyob va eng muxumi, jonli san'at voqeligiga aylandi. Qadimiy maqom san'ati azaldan ijrochilik madaniyatining oily ko'rinishi hamda uning ko'p asrlik an'alarining maxsuli hisoblanadi. o'ynoqi harakterga ham ega.

Xorazim vohasi ovozlari mellizimi haqida esa soatlab gapirishimiz mumkin. Bu yerdagi turli maktab vakillari o'z Bu cho'qqini zabt etish sozandaning o'z ijro asbobiga moslashuvidan boshlanadi.

Ma'lumki sharqda ovoz barcha cholg'u asboblarning iptidosi deb qaralgan. Musiqiy cholg'uning mukammal va nafisligidagi bosh me'zon insonning ovoz tabiatiga hamohangligidir. Qo'l bilan yasalgan cholg'u asbobiga nisbatan inson ovozi mohiyatan birlamchi hamda mo'tabar hisoblangan. Qadimda marosim qo'shiqlari va muqaddas kitoblar qiroatning sirli qudratiga bo'lgan e'tiqod aynan shu ovoz ta'siri tufayli yuzaga kelgan.

Tuyg'ularni jumbushka keltiruvchi ovoz ohangi orqali avesto zabur oyatlari (Dovud nag'malari) insonqalbiga yetkazilgan. Nafis va go'zal ovoz ohanglarini qadirlash islom dinig xosdir. Muqaddas kitob-Qur'oni karimda Payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V) ga ham ilohiy ovoz vahiy orqali nozil qilingan. "Qur'onni go'zal va yoqimli ovozda qiroat qilinglar degan sahih hadis ham bor.

Musulmon dunyosida musiqa deb birinchi navbatda sohaga oid ilm (ilmi musiqiy), qolaversa bazm va ziyofatlarda xuzur-xalovat, dunyoviy zavq bag'ishlashga mo'ljallangan, hamda cholg'u asboblarda ijro etiluvchi kuy, ohang va shodlik (mutriblik shodlik sozandalarining hunari) qo'shiqlari tushunilgan. Biroq qur'on tilovati, xonaqodagi qiroat bilan o'qish va diniy marosimlardagi aytimlar esa musiqa xisoblanmagan. Bularning barchasiga Xudo tomonidan berilgan muqaddas ne'mat- ovoz (ovoz san'ati) deb qaralgan.

Yuqorida takidlanganidek, Islomiy mafkurada kuy va ohang maxraji (talaffuz etilishi kelib chiqishi, ijrosi, manbayi" ga emas, balki borib yetadigan joyi (eshitilishi) ga qarab samo' deb yuritiladi. Samo'ning o'ziga esa – hush mavzun (muvofiq, mutanosib, go'zal) ovoz deb ta'rif beriladi.

Inson ruxiyatiga beixtiyor ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan xush mavzun tovush foyda ham, ziyon ham keltirishi mumkinligi uchun e'tiqodini oshiruvchi va ayni chog'da inson qalbiga yanglish va shubxa soluvchi narsa sifatida ko'rilgan. Shu sababli ma'lum vaqt va sharoit chegarasida, ya'ni bayramlar, to'ylar, tantanali voqealarda hamda hursandchiliklar, bazim- ziyofatlardagina undan foydalaninsh mumkin bo'lgan.

Zamon (vaqt), makon (o'rin) va ixvon(davra) ga qarab samo'ning vojib (savob), muboh (ixtiyoriy) va xarom (man etilgan) ekanligi belgilanadi (194).

Ma'lumki bizda ovoz san'atiga nisbatan hofiz so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi, Qur'onni yoddan biluvchi va uni xotirada saqlovchi sohib, ikkinchisi biroz kengroq ma'nodagi umuman ovoz san'atiga daxildor kishi yoki oddiy qilib aytganda aytuvchi (ashulachi). Qur'on hofizi va dunyoviy ashulachi ovoz san'atining turli tomoni, ikki kasbi. O'tmishda diniy va dunyoviy ovoz san'atlarining taniqli vakillari xisoblanmish Abdulqodir Marog'iy, Darvish Ali va boshqalar o'z faoliyatida hofizlik va ashullachilik hunarlarini mushtarak ravishda mujassamlashtirganlar.

Islom odobi sharoitida shirali, go'zal ovozni qadirlash zaminida nafosatli ashulachilik madaniyati vujudga kelgan. Shunga ko'ra jarangli va baland tessiturali erkak tenor ovozi eng yuksak ne'mat hisoblangan. Tabiiy ovoz imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun tegishli bilim va malakalardan xabardor bo'lish taqozo etilgan. "Ustoz- shogird" maktabida ovoz tarbiyasiga juda katta ahamiyat berilgan. Umidli o'smirlar doim mazkur san'at sirlarini tajribali ustozlardan o'rganish va o'z maxoratini muntazam oshirib borishga intilganlar.

An'anaviy xonandalikda ijro uslublari yurtimiz miqyosida yoritadigan bo'lsak, vohalarga mansub ovozmellizimlari va har xil maktab vakillari milliy ovoz san'atimizni rivojiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Mutaxassislar va ziyrak tinglovchilar ijro etilayotgan xar bir qo'shiqni ijro mellizimidan qaysi mahalliy uslubga mansub ekanligini darrov payqab oladilar.

Har bir vohaning o'ziga xos ovoz mellizimi va ohanglari mavjud. So'z ustasi, xalq orasidan yetishib chiqqan san'atkor Yusufjon qiziq Shakarjonov aytganidek: **"O'zbekiston san'atini bir daraxt desak, uning ildizi Xorazimda, tanasi Buxoro, Samarqandda, shoxlari vodiya, Toshkentga kelib gullaydi va meva beradi"**⁶. Bu so'zlarni aslida Yusufjon qiziq Shakarjonov ustozlaridan eshitgan ekanlar.

⁶ https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3a018121f01.file?utm_source=chatgpt.com

Ovoz mellizimlar haqidagi suhbatimizni Qoraqalpog'oston va Xorazimdan boshlasak. Qoraqalpoq millatiga mansub xonandalarni o'zbek yoki an'anaviy xonandalikka xos asar ijrolarini juda kamdan kam eshitamiz-u, lekin ularning akademik vokal yo'nalishida ijod qilayotgan namoyondalari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ovozi o'ta hissiyotli, ta'sirchan, ammo buni doim ham oshkor etavermaydi. Shunga qaramay jozibali mellizimlariga ega.

Hozirgi kunda bu maktab davomchilarining shajarasi Qoraqalpog'iston xududidagi Ellik qal'a, To'rtko'l, Shabboz, Beruniy kabi shahar va tumanlarida ijod etib kelmoqdalar. Bularning barchasini umumlashtirgan holda shunday deyishimiz mumkin. bu vohadagi ovoz mellizimlari o'ta salobatli (maqom ijrochiligidagi nola-qochirimlari ko'zda tutiladi), Hissiyotga boy, mag'rur, ichida yonib ketsa ham tashqarisiga sir boy bermaydigan, ta'sirchan, og'ir, bosiq, vazmin, yuqori pardalarda esa o'zining yorqin, jarangdor va ulug'vorlik bilan tus olish imkoniyatlariga ega. Sho'x o'ynoqi asarlarda esa o'zining jozibadorligi, shiddatligi va hushtakalluligi bilan ajralib turadi.

Bu xonandalarning ijrolarini diqqat bilan tinglasangiz butun bir O'zbek san'atining poydevoriga o'xshaydi. Ildiz degani mana shu bo'lsa kerak.

Buxorolik san'atkorlar ovozi salobat hamda vazminlikda Xorazimlik xonandalardan hech ham qolishmaydi. Ularning o'ziga yarasha pastki pardalarda mung bilan birga jozibadorlik hususiyatlari sezilib turadi. Buxoroning Olot, Qorako'l tumanlari honandalari ovozlari turkman millatiga va Xorazim vohasiga mansub mellizimlar ham eshtiladi.

Samarqand maktablari esa Buxorodan farqlio'laroq nolalar, qochirim ustuvorligi bilan ajralib turadi. Yuqori pardalarda ovozlari to'liqligi bilan farqlanadi.

Surxondaryo va Qashqadaryo vohalaridan bugungi kunga qadar ko'plab istedadli xonandalar yetishib chiqqan. Ularning ovoz mellizimlari o'ziga xos bo'lib, har xil yo'nalishlarda, turli vohalarga mansub asarlarni ijro etganda ham nafislik, ham chapanilik, ovozlari yorqinlik ularning shu vohaga mansub ekanligini anglatib turadi.

Vodiy maktablari esa umuman bir boshqa olam desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu yerdagi dardli, mungli ohanglar hech bir vohada kuzatilmaydi. Bu yerdagi ovozlari hatto o'zidan shikoyat qilayotgandek boy xissiyotga ega. Shuning uchun ular "Fig'on", "Girya", "Munojot", kabi yurakni sel qilib yuboradigan, mumtozlik darajasiga yetishgan mukammal asarlar mavjud.

Xatto sho'x-o'ynoqi qo'shiqlarni ham allaqanday g'amginlik va o'ziga xos mung bilan ijro etadilar. Chunki vodiy maktablarining ijrochilik uslublari borasidagi qarashlar shuni

taqozo etadi. Toshkentda ham ijrochilik maktablari juda ko'p bo'lib, ularning alohida maktablar sifatida e'tirof etmoq lozim. Qolaversa bu maktablar ovozidagi dardu-hasrat ularning ovoz mellizimlarida asosiy o'rinni egallaydi. Ammo baribir vodiy maktablarining ijro uslublari mung Toshkent maktablaridagi ijro uslubida muhim o'rin tutmaydi.

Quyida aytib o'tilgan voqa ovoz mellizimlarining barchasi nisbiy nuqtai nazarlarga tayangan holda aytib o'tildi. Bulardan tashqari milliy xonandalik san'atida nola – qochirimlar yoki boshqacha aytganda bezaklar mavjud. Nola va qochirimlar har bir uslub vakillari hamda vohalarga mansubdir. Bu masalaga tarixiy yondashish uchun faqatgina ilk magnit tasmlariga yozib olingan yozuvlarga va hozirgi vaqtda eshitish mumkin bo'lgan manbaalarga tayanamiz.

A'naviy xonandalik uzoq yillar mobaynida og'izdan-og'izga o'tib, ustoz shogird an'anasi bilan yashab kelmoqda. Bugungi kun yoshlari orasida ham maqom asarlarini o'rganish ishtiyoqidagi yoshlar juda ko'p bu albatta quvonarli holat. Bu bizning milliy merosimiz bo'lgan mumtoz ashulalarimiz Umrboqiy ekanligidan dalolat beradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning farmonlari bilan 2017-yil 17 Noyabr oyida 3391-sonli qaroriga binoan Maqom san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida qarori e'lon qilindi. Va anashu yildan boshlab viloyatlarda "Maqom markazlari" tashkil etildi. Ilk bor 2018-yilda Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz shahrida "Xalqaro maqom anjumani 2018 festivali" o'tkazildi. Aynan maqom ansambillarida faoliyat olib borayotgan xodimlar oylik maoshlari oshirildi. Bu prezidentimizning Maqom san'atiga naqadar e'tiborli ekanidan dalolatdir. Xulosa shuki bunday e'tibor va mukammal asarlar kelajak avlodga be'nuqson yetib borishi ularning ham beqiyos xazinasiga aylanishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O.Matyoqubov "Maqomot" (Toshkent-2004)
- 2.I.Rajabov "Maqomlar" (Toshkent 2006)
- 3.Sh.Matyoqubov "An'anaviy ijrochilik Uslubiyoti"
- 4.A.Fitrat "Ozbek klassik musiqsi va uning tarixi" (Toshkent-Samarqand 1927)